

AGGRESSIVE BEHAVIOR IN CHILDREN - PSYCHOCORRECTION WORKS USED IN ELIMINATING THE BEHAVIOR

Dilorom Abdullayevna Saliyeva

Candidate of Psychology Sciences, Associate Professor,

Head of the Department of Applied Psychology

Kokand State Pedagogical Institute

Mukhammadrizo Juraboyev

Student of Kokand State Pedagogical Institute

ABSTRACT

In the article, the causes of aggressive behavior in children and the content of psychocorrective work used to eliminate it, methods of using art therapy, isotherapy (by drawing, projective method), making things (from plasticine, clay, dough), music therapy, fairy-tale therapy, special information about the use of targeted therapies.

Keywords: aggression, interest in activity, psycho-correction, consultation, diagnosis, art therapy, isotherapy (by drawing, projective method), making things (from plasticine, clay, dough), music therapy, fairy-tale therapy, specially directed therapy.

BOLALARDA AGRESSIV XULQ – ATVORNI BARTARAF ETISHDA QO'LLANILADIGAN PSIXOKORREKSION ISHLAR

QDPI Amaliy psixologiya kafedrasi mudiri,

psixo.f.n., dotsent, Saliyeva Dilorom Abdullayevna,

talaba Juraboyev Muxammadrizo

ANNOTATSIYA

Maqolada bolalardagi agressiv xulq-atvorni kelib chiqish sabablari va uni bartarf etishda qo'llaniladigan psixokorreksion ishlarning mazmuni, artterapiyani qo'llash usullari, izoterapiya (chizish orqali, proektiv usul), narsalar yasash (platilin, loy, xamirlardan), musiqaterapiya, ertakterapiya, maxsus yo'naltirilgan terapiyalardan foydalanish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: agressiya, faoliyatga qiziqish, psixokorreksiya, konsultatsiya, diagnostika, artterapiya, izoterapiya (chizish orqali, proektiv usul), narsalar yasash (platilin, loy, xamirlardan), musiqaterapiya, ertakterapiya, maxsus yo'naltirilgan terapiya.

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены причины агрессивного поведения у детей и содержание психокоррекционной работы по его устранению, методы применения арт-терапии, изотерапии (рисованием, проективным методом), изготовления вещей (из пластилина, глины, теста), музыкотерапии, сказкотерапия, специальные сведения о применении таргетной терапии

Ключевые слова: агрессия, интерес к деятельности, психокоррекция, консультация, диагностика, арт-терапия, изотерапия (рисованием, проективный метод), изготовление вещей (из пластилина, глины, теста), музыкотерапия, сказкотерапия, специально направленная терапия.

Bolaning psixik rivojlanishi uning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektib va sub'ektib omillarga, xususan, undagi o'zlikni anglash, o'ziga-o'zi beradigan baholar hamda munosabatlarning xarakteriga bog'liqdir. Davlatimiz ko'rlab rivojlangan davlatlar safidan o'rin egallash uchun dadil odimlab borayotgan ekan, yurtimizni har tomonlama rivojlantiruvchi ziyolilarning bilim, salohiyat darajasiga qo'yiladigan qat'iy talablarga ahamiyat berilishi, kelajak ravnaqi uchun poydevor hozirlaydi. Eng avvalo, yosh avlodni tarbiyalash, har tomonlama yetuk komil inson qilib voyaga yetkazish har birimizning vatan oldidagi burchimizdir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2018 yil 5-apreldagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi chiqarilgan qarorlarida ham maktabgacha ta'lim muassasalariga alohida e'tibor berilishi haqida ta'kidlangan. Bolalarni aqliy, jismoniy va ruhiy rivojlanishlarini to'g'ri tashkil etishda ota-onalar bilan bir qatorda o'qituvchilar asosiy va muhim ahamiyatga egadirlar. Chunki o'qituvchilar pedagogik va psixologik bilimlarni chuqur o'qib, o'rgangan, hayotiy tajribaga ega shaxs hisoblanadilar. Bolalarning yosh xususiyatlari, bilish jarayonlari, individual sifatlari va iqtidorlarini hisobga olgan holda bolalarda yangi ijobiy xislatlarni shakllantirishda, ularning xulq-atvorida namoyon bo'layotgan salbiy sifatlarni bartaraf qilish, ijobiy sifatlarni tarkib tortirishda, o'qituvchilarning yuksak mahorati, bilim va malaka, salohiyat egasi bo'lishi juda katta ahamiyatga ega.

Agressiv xulq-atvor bu inson bilan vaziyatning o'zaro ta'siri natijasidir. Agressivlik sifat va miqdor tavsiflariga ega bo'lib, barcha xossalar kabi u ham turli darajalarda ifodalanadi. Agressivlik har bir shaxsda ma'lum miqdorda mavjud bo'ladi. Agressivlik darajasi yuqori bo'lgan kishilar boshqalarga nisbatan agressiv reaksiyalarni namoyon etishga ko'proq moyil bo'ladilar. Agressiv reaksiyalarga boshqa odamlarni qoralash, haqoratlash yoki ularga jismoniy zarar yetkazishga yo'naltirilgan reaksiyalarni kiritishimiz mumkin.

Agressiv xulq-atvor asosini agressivlik motivi tashkil etadi. Agressiv xatti-harakatlar shaxsga ma'naviy, moddiy yoki jismoniy zarar yetkazishi, destruktiv xulq-atvorning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatishi bilan xarakterlanadi. Bunday xatti-harakatlarni bartaraf etishning psixologik jihatdan qiyin tomoni shundaki, agressiv xatti-harakat qiluvchi shaxs o'z xatti-harakatlarini oqlash uchun turli xil dalillarni keltiradi va o'z aybini soqit qilishga urinadi.

Agressiv xulq-atvorning tez-tez ifodalanishi shaxsning emotsional holati bilan bog'liq bo'lib, uning asosini quyidagilar tashkil etadi:

- nerv-psixik kasalliklar, inson nerv sistemasining nihoyatda charchaganligi;
- oiladagi psixologik muhitning nosog'lomligi va ota-onalarda pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi;
- shaxsning xarakter, xislati, ijtimoiy muhitning yomonlashuvi.

Agressivlikning me'yordan ortishi natijasida shaxsda asab tizimining buzilishi, nerv-psixik kasalliklar, kommunikativ malakalarning pasayishi, o'z-o'ziga adekvat baho bera olmaslik, ishonch hissining yo'qolishi, o'z-o'zini boshqara olmaslik, xavotirlanish darajasining ortishi,

frustratsiya, depressiya, stress kabi salbiy oqibatlar kuzatiladi. Hozirgi kunda insonlarda kuzatilayotgan agressiv xatti-harakatlarning namoyon bo'lish sabablarini aniqlash, destruktiv xulq-atvorni oldini olish yoki nazorat qilish muammolarini ilmiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, inson tabiatdagi bu ko'rinishni chuqur o'rganish psixologiya fanining bugungi kun talabiga aylanmoqda. Bugungi kunda agressiv xulq –atvorli bolalar soni ortib borayotganligi psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egallashiga sabab bo'ldi. Bolalarda agressiv xatti-harakatlarning vujudga kelishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unga ko'pgina omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Agressiv xatti-harakatlar oila, tengdoshlar guruhi, oilaviy axborot vositasi ta'sirida shakllanishi aniqlangan.

Bolaning agressiv xatti-harakat namunalari quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to'playdi:

1. Nosog'lom oila muhiti. Ba'zi oilalarda ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikning mavjud emasligi bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo'lishi oilaviy muhitning ta'sir darajasiga bog'liq hisoblanadi.

2. Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o'z tengqurlari bilan bo'lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdiradilar. Ko'pgina hollarda bolalar tengdosh do'stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda o'zlarini agressiv tutishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar esa o'z tengdoshlari orasidan siqib chiqariladi. Bunday bolalar o'zini xo'rlangandek his qilib, o'zi kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammo ustiga muammo tug'dirmasdan qolmaydi.

3. Ommaviy axborot vositalari bugungi kunda bolalarning agressivligini kuchaytirishga ta'sir etayotgan eng kuchli quroldir, degan fikr keyingi paytlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilmoqda. Shu o'rinda OAV orqali namoyish etilayotgan turli jangari filmlar, ko'rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarning tarkib topishiga ta'sir qilayotganligi mutaxassislar tomonidan qayd etilmoqda. Bu borada internetning ta'siri ham o'ziga xosligi inkor etib bo'lmas haqiqatdir.

Bolalar internet orqali o'zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan ma'lumotlar bilan tanishmoqda, jangarilikni, agressiyani targ'ib etuvchi, shakllantiruvchi turli xil o'yinlarni o'ynash orqali o'zlarining ongosti sohasida agressiv xulqning shakllanishiga sabab bo'lmoqdalar.

4. Agressiv xulqni «yomon» bilan bir xil hisoblash mumkin emas. Og'ir, xavfli vaziyat paydo bo'lganida agressivlik ximoya, ba`zida esa vaziyatni bartaraf etuvchi funksiyani bajaradi. Agressiv xulq ayniqsa bolada yoshga xos bo'lgan o'tish davrida kuzatiladi. Bu shundan dalolat beradiki, yosh davrlari krizisi paytida bolaning yashashi qiyinlashadi, har qanday murakkab vaziyatda bola qiyinchilikni xis qiladi va shu sababli agressiv xulqning elementlari kuzatish mumkin. Bu normadagi bolaga ham, agressiv xulqli bolaga ham birdek tegishli.

5. Affektiv buzilish bo'lganida agressiya odatiy hodisaga aylanadi, xatto xulq-atvorning birdan bir shakli bo'lib qoladi. Biroq bunga qaramasdan, bola xulqida agressivlikning bor bo'lishi ular bilan o'zoro munosabatda qiyinchilik tug'diradi.

Agressiv tendensiyalarni tasodifiy salbiy xolat deb baholab bo'lmaydi. Shuni esda tutish kerakki, affektiv taraqqiyot jarayonida bola aktivligi qonuniy ravishda oshishi mumkin. Maktabgacaha yoshdagi yoki birinchi sinfga kelgan agressiv xulqli bolalar bilan korreksion ishlarni art-terapevtik usullardan foydalanish asosida olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Art-terapiya bu - psixoterpiyaning umumsog'lomlashtiruvchi metodlari sirasiga kirib, maktab yoshidan boshlab, kattalar o'rtasida xam turli ko'rinishlarda foydalanib, samarali natijalarga erishib kelinmoqda. Art-terpiyani quyidagi yo'nalishlarda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Izoterapiya (chizish orqali, proektiv usul)
2. Narsalar yasash (platilin, loy, xamir v.b.lardan)
3. Musiqaterapiyasi
4. Ertakterapiyasi
5. Maxsus yo'naltirilgan terapiya vaboshqalar.

Art-terpiyani qo'llash jarayonida quyidagi afzalliklar namoyon bo'ladi.

1. Turli ruxiy kasalliklardan ximoyalanish.
2. Stress, agressiya va depressiyani oldini olish.
3. Da'volovchi muolaja sifatida dori-darmonsiz faoliyatni amalga oshirish, kasalliklarni yengillashtirish.
4. Yangi qobiliyatlarni aniqlanishi, shakllanishi va ijodiy imkoniyatlarning ortishi.
5. Ijtimoiy muxitga moslashtirishda yordam beradi.
6. Qo'rquvni yengishda foydalaniladi.
7. Aqliy, intellektual saloxiyat ortadi.
8. Organizm va psixikasi ijodiylikka o'rgatadi.
9. Ba'zan yangi san'at asari dunyoga keladi.

Birinchi sinfga kelgan o'quvchilarda salbiy emotsional holatlarni bartaraf etish uchun trening dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur bolalarda uchraydigan salbiy emotsional holatlarni korrektsiyalashga qaratilgan. Birinchi sinfga kelgan o'quvchilarning salbiy emotsional holatlarni korrektsiyalash bo'yicha dasturni quyidagicha olib bordik.

Dasturning maqsadi: birinchi sinfga kelgan o'quvchilarning salbiy emotsional holatlarni korrektsiya qilish bo'lib, dastur quyidagi vazifalardan iborat:

1. Bolalarda salbiy emotsional holatlarni yuzaga kelish sabablarini aniqlash.
2. Salbiy emotsional holatlarni bataraf etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotda foydalanish.
3. Bolalarda irodani rivojlantirish.
4. Shaxsning ijobiy xususiyatlarini rivojlantirish.

Birinchi sinfga kelgan o'quvchilar bolalar bilan amalga oshiriladigan trening mashg'ulotlari quyidagi masalalarni ham yechishga qaratilgan.

1. Salbiy emotsional holatlarni korrektsiyalash usullari, bunda bolalar bilan emotsional holatlardagi salbiy xususiyatlarni pasaytiruvchi o'yinlardan foydalaniladi.

2. Bolalarda irodani rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar. Bunda o'yinlar asosan irodaviy faollikka qaratilgan.

3. Shaxsda ijobiy xususiyatlarni shakllantirishga qaratilgan o'yinlar. Bunda asosan shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlardan foydalaniladi.

4. Nazorat tajriba natijalari

Dastlabki diagnostika ishidan keyin sinaluvchilar guruhida maxsus trening dasturi bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi. Trening dasturi 2-oy davomida olib borilib, sinaluvchilar guruhida yana metodikalar o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Bolalarning muloqotdagi agressivlikni bartaraf etishda shaxs bo'lib rivojlanishida oilalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, hayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallashlariga e'tibor berish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Adizova T.M., Usmanova E.Z., To'laganova G.K. Kichik maktab yoshining psixologik muammolari. Bu to'plamda: Psixologik tuzatish ishlarining ayrim jihatlari. –Toshkent.: O'qituvchi, 1995. B. 3-12.
2. Aleksandrova YA.A. Nevrozi detey mladshego shkol'nogo vozrasta. SPb.: Dilya, 2001. S. 87-95.
3. Salieva, D. A. "Psychological peculiarities of the influence of motivation on the learning independence of the student of young school." *EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues* 8.3 (2020): 87-90.
4. Abdullayevna, Salieva Dilorom, and Saipova Mehri Valievna. "Mental Characteristics Of Experience Teenagers From Labor Immigrant Families Who Feel Lonely." *Journal of Positive School Psychology* 6.11 (2022): 423-427.
5. Salieva, Dilorom Abdullaevna, and KarasOrzhanovichKaziev. "THE INFLUENCE OF THE GENDER PERSONALITY OF THE MANAGER ON INTERPERSONAL RELATIONS IN PERSONNEL MANAGEMENT." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.11 (2022): 756-760.
6. Saliyeva, Dilorom, and Nozima Gofurova. "Children's mobbing and helping psychological injured child at school." *Scientific Bulletin of Namangan State University* 1.1 (2019): 262-267.
7. Салиева, Д. А. "К вопросу о психологических возможностях развития учебной самостоятельности в младшем школьном возрасте." *Актуальные проблемы современной науки* 5 (2013): 117-119.
8. Abdullaevna, Saliyeva Dilorom, and Rakhmonova Ayshakhan Oribovna. "Gender Stereotype In Adolescence The Study Of The Formation Of Properties." *Journal of Positive School Psychology* 6.10 (2022): 3446-3451.